BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA ERTAK JANRIGA XOS MATNLAR USTIDA ISHLASH

Jumanazarova Zahro Berdiyor qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Davronova Saida Valijon qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Ertak janri insoniyatning qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lgan eng muhim va qiziqarli adabiy shakllaridan biridir. U xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, ko‘plab madaniyatlarda o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ular hayotda yuz beradigan turli muammolarni, insoniy his-tuyg‘ularni va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Quyida ertak janrining asosiy xususiyatlari, strukturalari, temalari va ertak janri matnlari ustida ishlash xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ertak, xalq og‘zaki ijodiyoti, syujet, srtuktura, ertaklarning temalari, ertak qahramonlari.

ANNOTATION.The fairy tale genre is one of the most important and interesting literary forms of mankind, which has existed since ancient times. It is an integral part of folk oral creativity and manifests itself in a unique way in many cultures. They reflect the various problems that occur in life, human emotions and social relationships. The following is talked about working on the main features of the fairy tale genre, structures, themes and texts of the fairy tale genre.

Keywords: fairy tale, folk oral creativity, plot, structure, themes of fairy tales, heroes of fairy tales.

Ertak - o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va eng ommaviy janrlaridan biri. Fantastik xayolot hamda badiiy to‘qimalar asosiga qurilib, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deb ataladi.

Ertaklarning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi va turli xalqlarda o‘ziga xos shakllarda mavjud. Masalan, Yevropa, Osiyo va Afrika xalqlarining ertaklari o‘z madaniyatlarining xususiyatlarini, urf-odatlarini va e'tiqodlarini aks ettiradi. Ertaklar ko‘pincha tarbiyaviy maqsadlarda ishlatiladi va ularning asosiy vazifalaridan biri – axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Ertaklar asosan nasr shaklida yaratilgan. Bugungi kunda ertaklar nafaqat og‘zaki ijod sifatida, balki adabiyot va ommaviy madaniyatda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy yozuvchilar xalq ertaklarini qayta yozib, zamonaviy mavzularni qo‘shmoqda. Shuningdek, kinofilmlar va animatsion filmlar orqali ham ertaklar qayta ishlab chiqilmoqda

Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertaklar zamonaviy dunyoda ham tarbiyaviy rolini saqlab qolmoqda. Ular bolalarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish va hayotiy saboqlar berishning samarali vositasi bo‘lib qolmoqda.

Ertaklarda ko‘pincha yaxshi va yomon, adolat va nohaqlik, sevgi va fidoyilik kabi temalar ko‘tariladi. Bu temalar ertaklarning asosiy motivlarini tashkil etadi. Motivlar, odatda, qahramonning sayohati, qiyinchiliklarni yengib o‘tishi va o‘z-o‘zini topishi bilan bog‘liq. Masalan, "Qizil shapka" ertagida qahramonning yovuzlikka qarshi kurashi va o‘zini himoya qilish yo‘llari tasvirlanadi. Ushbu motivlar nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki ular insoniyatning umumiy tajribasini aks ettiradi. Ertaklar orqali ko‘plab ijtimoiy muammolar, masalan, adolat, tenglik va inson huquqlari haqida fikr yuritiladi.

Ertaklar, odatda, uch asosiy qismdan iborat: kirish, voqea rivoji va xulosa. Kirishda qahramonlar va ularning muammolari tanishtiriladi. Bu bosqichda, qahramonlarning xarakterlari va ularning atrof-muhit bilan munosabatlari ochib beriladi. Voqea rivojida esa qahramonlar muammolarni hal qilish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu muammolar ko‘pincha fantastik elementlar yoki sehrli ob'ektlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Xulosa qismida esa voqealar natijasi ko‘rsatiladi, va ko‘pincha qahramon o‘z maqsadiga erishadi yoki yutqazadi. Ushbu strukturaviy qism ertaklarning ko‘plab variantlarida umumiy bo‘lib, ularning tahlilida muhim rol o‘ynaydi.

Ertak janri matnlari ham ertakni o‘rganish va o‘qitish jarayonlarida asosiy o‘rin egallaydi. Matnlar ustida ishlash eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Quyida ertak janri matnlari ustida ishlash uchun bir necha asosiy nuqtalarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

a) mavzu tanlash: Ertak uchun qiziqarli va o‘ziga xos mavzu tanlang. Bu o‘ziga xos qahramonlar, fantastik voqealar yoki axloqiy saboqlar bo‘lishi mumkin;

b) qahramonlar yaratish: Ertakning qahramonlari va antagonistlarini aniq belgilab olish. Ularning xarakterlari, maqsadlari va o‘zaro munosabatlari muhim. Har bir qahramonning maqsadi, qobiliyatlari va xususiyatlari aniq bo‘lishi kerak. Ular o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rsatish muhim;

c) syujetni qurish: Ertakning boshlanishi, rivojlanishi va yakuni qanday bo‘lishini rejalashtirsh kerak. Odatda, ertaklar qandaydir muammoga duch kelish va uni hal qilish jarayonini o‘z ichiga oladi;

d) tilda o‘ynash: Ertakni yozishda tasviriy va ijodiy til ishlatish, o‘quvchini jalb qilish uchun juda muhim;

e) qayta ko‘rib chiqish, tahrir qilish: Ertak yozgandan so‘ng, ertakni qayta ko‘rib chiqib, struktura, til va qahramonlar rivojini tekshirib chiqish lozim.

Yuqorida keltirilgan ertak matni ustida ishlashga doir ba’zi asosiy punktkar ustida ishlansa, ertak yaratilishi jihattan ancha mukammal va mazmundor holda yaratiladi. Shuningdek, ushbu janrni turli zamonaviy metodlar, xususan, ko‘rgazmali qurollar, zamonaviy aspektlar asosiga

qurilgan hamda o‘quvchilar o‘zlari tomonidan sahnalashtirilgan tarzda tashkil etish bilim oluvchiar o‘rtasida ushbu janrga bo‘lgan munosabatni kuchaytirishi dars. mashg‘uloti saviyasini oshirish imkoniyatini beradi. Ertak janri matni ustida ishlash jarayonida chuqurroq tahlil qilish va yanada batafsil ma’lumot berish janrining turli o‘ziga xos xususiyatlarini kengroq o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ertak janri – insoniyatning muhim madaniy merosi. Ertaklar orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini saqlab qolish mumkin. Ushbu janr bolalar tarbiyasida, ularga axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda va badiiy tasavvurni kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ertaklar orqali odob-axloq qoidalari, qahramonlik, halollik, va mardlik kabi fazilatlar tarbiyalanadi. Shu bilan birga, ertak janri matnlarini o‘rganish badiiy tahlil, janrning tarkibiy qismlari, timsollar va syujet tuzilmasini aniqlash imkonini beradi. Ertaklar insonning ichki dunyosini va ijtimoiy hayotdagi muammolarni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Matnlar ustida ishlash natijasida ularning zamonaviy ta'lim va madaniyatdagi ahamiyatini ham o‘rganish mumkin. Umuman olganda, bu ish ertak janri matnlarini chuqurroq o‘rganishning ahamiyatini ta’kidlab, ularning adabiy va madaniy meros sifatida saqlanishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. T.: «FAN»

2. M.Jo‘rayev. J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish, T: "Barkamol fayz media 2017. O‘ZBEKISTON, 180 b

3. Sarim soqov B. O‘zbek folklorining janr sostavi // O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik.l-tom. -T.: "Fan", 1988